

## O'SMIRLARNING O'QISH SAMARADORLIGIGA XARAKTER AKSENTUATSIYASINING TA'SIRI

**F. Fayzullayeva**

O'zbekiston Milliy universiteti magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlik yoshida yuzaga keladigan xarakter xususiyatlari va ularning bolaning ta'lim va tarbiya olish jarayoniga ta'siri haqida fikr yuritilgan. O'smirlik yoshida yuzaga keladigan salbiy xususiyatlarning paydo bo'lishi va ularni bartaraf etish borasida tavsiyalar berib o'tilgan. Maqoladan pedagoglar, psixologlar va farzand tarbiyasidagi ota-onalar foydalanishlari mumkin

**Kalit so'zlar:** o'smir, o'smirlik davri, yosh davrlari, xarakter, xarakter aksentuatsiyasi, o'smirlik, ta'lim-tarbiya, xarakter xususiyati, xarakter hislatlari.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda o'zidagi ko'plab sohalardagi islohatlari bilan dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari qatoridan joy olmoqda. Islohotlarni faqat bir sohadagina emas balki jamiyatning turli soha va tarmoqlarida ko'rishimiz mumkin. Yirik islohotlar haqida so'z yuritilar ekan yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yirik loyihamalar va ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor haqida to'xtalib o'tmaslikni aslo iloji yo'q. Ta'limni yuqori tashkil etishning tub mazmunini o'sib kelayotgan yoshlarni yetuk kadr sifatida tayyorlash va davlat va jamiyat rivoji uchun kerakli shaxs shakllanishini ta'minlash yotadi desak adashmagan bo'lamiz. Ta'limni to'g'ri tashkil etish esa ko'zlangan maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'lidir. Ta'limni tashkil qilishda albatta pedagoglardan alohida diqqat, pedagogik mahorat va o'quvchini individual xususiyatini yaxshi bilish, qiziqishlarini aniqlay olish va to'g'ri yo'naltira olish talab qilinadi.

Insonning hayot yo‘li bir necha davrlarni o‘z ichiga oladi. Har bir davr inson hayotida o‘ziga xos tarzda o‘tadi. Ayniqsa bu davrdalar ichida o‘smirlilik o‘ziga xos jo‘shqinliklar va rang-barangliklar bilan boshqa yosh davrlardan farq qiladi. O‘smirlilik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda insonning fiziologik rivojlanishida ham aqliy rivojlanishida ham yaqqol o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Inson yashar ekan albatta unga uni qurshab turgan jamiyat, odamlar jamoasi, ijtimoiy muhit o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Ayni

shu ta’sirlar natijasida o‘smirdagi turli xil xususiyatlar va hislatlar rivojlanadi,takomillashadi. Shu sababdan tarbiya beruvchi ota-onalardan va pedagoglardan bolaning ayni shu yoshlarida unga nisbatan diqqat va e’tiborni kuchliroq qaratish talab etiladi.

Ma’lumki har bir shaxs o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa shaxsdan ajralib turadi va bunga individual xususiyatlar deb ta’rif beramiz. Shaxsda mavjud individual xususiyatlarga ularda mavjud bo‘lgan temperament,xarakter,qobiliyat kabi xususiyatlardir. O‘smirlilik davrida ayni shu xususiyatlar va hislatlarning ijobiy tomonlari ham salbiy tomonlari ham ancha tez rivojlanishini guvohi bo‘lishimiz mumkin. O‘smirda rivojlanadigan ijobiy hislatlar sifatida jamoaviylik, mustaqillik, sabr-matonatlilik, qat’iylik va turli yo‘nalishlarda qobiliyatlarning o‘sishini keltirib o‘tish mumkin. Bu ijobiy hislat va sifatlarni yanada rivojlantirish orqali o‘smirni ma’lum bir sohaga yo‘naltirish va unda ijobiy natijaga erishish mumkin[1].

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek bu davrda faqatgina ijobiy hislatlarga emas balki, salbiy hislatlar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘smirlarda bu davrda biologik va jismoniy o‘zgarish natijasida uning ruhiy olamida ham tub o‘zgarishlar yuzaga keladi. Jumladan o‘smirlarda so‘zga kirmaslik, tajanglik, urushqoqlik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik kabi holatlar ko‘zga tashlanadi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy “psixik rivojlanishdagi krizis”deb nomlagan. Olim yana yuqoridagi holatlarni oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkinligini ham ta’kidlab o‘tadi.[2]

Yana bir o'smirlikda uchraydigan salbiy xarakter xususiyatlardan biri bu xarakter aksentuatsiyasidir. F.I.Xaydarov va N.I.Xalilovalarning tahrirlari ostida nashr etilgan "Umumiy psixologiya" darsligida bu xususiyatga shunday ta'rif beriladi:

"Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib va normaning oxirgi chegarasiga borib qolganda xarakter aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi)deb ataladi. Xarakter aksentuatsiyasi biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishdir. O'smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi. Xarakter aksentuatsiyasida o'smir har bir ta'sirga nisbatan reaksiya bildiravermaydi, balki ayrim ta'sirlarga nisbatan juda kuchli reaksiya bildiradi. Xarakter aksentuatsiyasining ochiq va yopiq turlari farqlanadi.[3]

O'smirlik davri bolalikdan kattalikka o'tish davri hisoblanadi". O'smir endi bola ham emas, biroq katta ham emas"- ayni shu ta'rif o'smirlik davrining eng muhim xarakterini bildiradi.

O'smirlarda bunday holatlarning yuzaga kelishida ularni qurshab turgan davralar ya'ni ularning do'stlari, oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarlar, o'quv jarayonlaridagi muvaffaqiyatsizliklar, o'zaro tushunmovchiliklar, oilaviy nizolar sabab bo'lishi mumkin. Yana bu yoshda bolalarning ota-onalari va murabbiylari bilan ham o'zaro tuhunmovchiliklar va ko'ngilsizliklar uchrab turadi. Oilada ota-onalar o'rtasida bo'lib o'tadigan kichik muammoli vaziyatlar ham o'smir ruhiyatiga kuchli ta'sir etadi. Agar bunday holatlar oilada ko'p takrorlanadigan bo'lsa bora-bora bolaning uydan uzoqlashishi va buning oqibatida turli-tuman zararli odatlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday o'smir ruhiyatidagi o'zgarishlar uning ta'lim olish jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Agar o'smir shu holaticha e'tiborsiz qoldirilsa albatta jamiyatga zarar yetkazmay qolmaydi. Bunday bolalar bilan ish yuritishda tarbiyachi va ota-ona o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash va birgalikda ishlash, hamkorlik yuritish tavsiya e'tiladi.

O'smirlar bilan ishlashda o'tish davri bo'lganligi tufayli birmuncha qiyinchiliklar tug'ilishi tabiiy hol sanaladi. Bunda ota-onalar va tarbiyalanuvchilarga bir muncha tavsiyalar beriladi.

1. Avvalambor oilaviy munosabatlarda tinchlik va totuvlikni ta'minlsh. Bu o'smirlar bilan ishlashda dastlabki samarali qadam hisoblanadi. Agar oilaviy totuvlik va o'zaro hurmat oilada shakllangan bo'lsa xuddi shu xususiyat ham bolada shakllangan bo'ladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashlaricha oila atrofida uyushtirilgan nonushta va tushlik o'sib kelayotgan bolalar uchun ijobiy muhit hisoblanar ekan va ayni shunday oilalarda o'sib voyaga yetgan bolalarda yot ta'sirlarni ta'sir etishi kam hollarda uchrar ekan.

2. Ayni bu davrda o'smirlar organizmida fiziologik rivojlanish ham kuzatiladi. Shu sababdan ular ancha besaramjon, serharakar va g'ayratli bo'ladilar. Ularni bir xil hayot tarzi tezda zeriktirib qo'yadi. Pedagoglar tomonidan olib boriladigan dars jarayoni har safar bir xil tarzda tashkillashtirilsa bu ham ularni o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishlarni sovishilariga olib keladi. Yuqorida bu davrda bolalarning g'ayratli va serharakat bo'lishlari haqida ta'kidlandi. Ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda ma'lum sohaga yoki fanga yo'naltirish ham ularda vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni oldini olishda yordam beradi.

3. Xarakter hislatlarining rivojlanishida atrofdagilarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi. Ayniqsa xarakter aksentuatsiyasining o'smirlik yoshining ajralmas qismi ekanligini inobatga olib ularni mustahkamlanib qolmasligiga harakat qilish lozim. Tarbiyachi o'qituvchi va ota-onada xarakter aksentuatsiyasi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bu haqida ma'lumotga ega bo'limgan ota-onalar uni injiqlik va qaysarlik sifatida qabul qilishlari va beparvo qoldirishlari mumkin. Bu esa keyinchalik o'smirda salbiy xususiyatni doimiy bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin. O'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi doimiy bo'lib qolmasligi uchun o'smir ruhiyatiga ta'sir etuvchi psixik ta'sirlar sonini kamaytirish kerak.

4. Tarbiyasida og'ish bo'lgan bolalar bilan ishslashning eng samarali usullaridan biri bu ular bilan yakka tartibda ishslash usulidir.

O'smirlik inson yosh davrlari orasida shiddatli kechadigan davr hisoblanadi. Bu davrda inson organizmi ham fiziologik,ham psixologik jihatdan rivojlanish bosqichida bir pog'onaga yuqoriga ko'tariladi. Ayni shu davrda insonning katta hayotga ilk qadamni qo'yish jarayoni yuz beradi. Ularda hayotning turli sohalariga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi,ko'plab narsalarni bilishga intiladilar. Shunday vaqtida to'g'ri berilgan yo'llanma o'smirning hayotda o'z o'rnini topishida zaruriy omil sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'smirlik davri yosh davrlari ichida qiyin kechadigan davr hisoblanadi. Turli xil yot ta'sirlar, o'smirni o'zini anglashdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishi, turli xil zo'riqishlar, do'stlar va oila a'zolari orasidagi nizoli vaziyatlar ijtimoiy hayotdagи ko'plab voqeа va hodisalar-bularning barcha-barchasi o'smir organizmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Ota-onada tomonidan berilgan to'g'ri tarbiya, pedagoglar tomonidan tashkil etilgan ta'lim berish jarayoni orqali o'smirlar xulqida vujudga keladigan turli xil o'gishlarni va salbiy ta'sirlarni bartaraf etish mumkin. Buning uchun tarbiyachilardan biroz mahorat va bilimning bo'lishi maqsadga erishishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bunday vaziyatda ota-onada, tarbiyachi va psixologning birgalikda amalga oshirgan faoliyati kutilgandanda ko'proq samara beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Y. Djumanazarov "Yosh va pedagogik psixologiya" 2-qism Namangan - 2015
2. Z.Nishonova, D.Abdullayeva, G.Baykunusova "O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiysi" Toshkent-2015
- F.I. Xaydarov va N.I. Xalilova Umumiy psixologiya T-2017